

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



# ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 2

2026

**International Journal of  
Contemporary Scientific  
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 2  
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik  
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**2-son  
2026**

**Международный журнал  
современных научно-  
технических  
исследований**

**Том 2 Выпуск 2  
2026**



# MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

**Xalqaro ilmiy-elektron jurnali**

**Tahrir kengashi raisi:**

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

**Bosh muharrir:**

A.A. Abdumalikov

**Tahrir kengashi mas'ul kotibi:**

D.M. Jomurodov

**Tahririyat hay'ati:**

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

*Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.*

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

**Tahririyat manzili:**

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,  
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.



## JADID MARIFATPARVARLAR IJODIY MEROSINING PEDAGOGIK TALQINI VA TAHLILI

Sattorov Musurmonqul Dostonovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: [Musurmonquld@gmail.com](mailto:Musurmonquld@gmail.com) ORCID: 0009-0009-0247-8095

### Annotatsiya.

Mazkur mavzu jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan asosiy g'oyalarning ijtimoiy mohiyatini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda jadidchilik harakatining ma'rifat, zamonaviy ta'lim, milliy uyg'onish, ijtimoiy taraqqiyot, inson huquqlari va jamiyatni isloh qilishga oid qaraishlari yoritiladi. Shuningdek, jadidlarning ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mavzu jadid g'oyalarining tarixiy hamda zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy taraqqiyot, milliy uyg'oniSh, ta'lim islohoti, zamonaviy ta'lim, milliy o'zlik, ijtimoiy islohot, ilm-fan, madaniyat, fuqarolik jamiyati, taraqqiyot.

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И АНАЛИЗ ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ

Сатторов Мусурмонкул Достонович

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, доцент (PhD).

### Аннотация.

Данная тема посвящена научному анализу социальной сущности основных идей, выдвинутых движением Джадидов в эпоху Просвещения. Она охватывает взгляды движения Джадидов на Просвещение, современное образование, национальное возрождение, социальное развитие, права человека и социальные реформы. Также анализируется роль и значение Джадидов в развитии науки и культуры, понимании национальной идентичности и формировании гражданского общества. Тема призвана раскрыть значение идей Джадидов в историческом и современном социальном развитии.

**Ключевые слова:** Джадидизм, Просвещение, Социальное развитие, Национальное пробуждение, Образовательная реформа, Современное образование, Национальная идентичность, Социальные реформы, Наука, Культура, Гражданское общество, Развитие.

## PEDAGOGICAL INTERPRETATION AND ANALYSIS OF THE CREATIVE HERITAGE OF JADID ENLIGHTENERS

Sattorov Musurmonqul Dostonovich

Sharof Rashidov Samarkand State University, Associate Professor (PhD).

### Abstract.

This topic is devoted to the scientific analysis of the social essence of the main ideas put forward by the Jadid Enlightenment. It covers the views of the Jadid movement on enlightenment, modern education, national revival, social development, human rights, and social reform. It also analyzes the role and significance of the Jadids in the development of science and culture, the understanding of national identity, and the formation of civil society. The topic serves to reveal the significance of Jadid ideas in historical and modern social development.

**Keywords:** Jadidism, Enlightenment, Social Development, National Awakening, Educational Reform, Modern Education, National Identity, Social Reform, Science, Culture, Civil Society, Development.

**Kirish.** Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllanib, qisqa muddatda ijtimoiy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan ijtimoiy harakatga aylanadi. Turkistonda milliy mustaqillik uchun kurash yo'liga kirgan dastlabki ijtimoiy-siyosiy oqim jadidlar harakati edi. Albatta, Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Mazkur harakatning paydo bo'lishi uchun ma'lum bir **obyektiv** sharoit va sabablar mavjud edi. XIX asrning o'rtasi va XX asrning boshida jamiyatda yangilanish zarurati **tug'ildi**. Bir qator ijtimoiy, siyosiy, **huquqiy** va ma'naviy muammolar paydo **bo'ldi**. Ularni hal etish uchun bel bog'lagan bir guruh ziyolilar xalq orasida "jadidlar" deb tan olindi [1].

Jadidchilik harakati namoyandalari o'z pedagogik g'oyalari mezonini ijtimoiy adolat, milliy farovonlik, turkchilik, milliy mustaqillik va shu kabilar asosida shakllantirgan edilar. **Shu** bilan birga, ular madaniy-axloqiy va ma'rifatparvarlik ishlarini yangilashga, **Yevropacha** ilmiy-texnika tafakkurini targ'ib qilishga, diniy mutaassiblik, aqidaparastlik va nodonlikka barham berishga, yot axloqiy ideallarning kirib kelishiga qarshi islom tarixiga qiziqish uyg'otishga harakat qildilar.

Jadidlar mafkurasi ham o'ziga xos edi. Ular o'sha paytlarda butun dunyoga keng tarqalishga ulgurgan Yevropa madaniyati va rivojlanish g'oyalarini rad qilar, shu bilan birga, yangi paydo bo'lgan sotsializm va sotsial-demokratik qarashlarga qo'shilmas, bu oqimlar Turkistonning kelajagi uchun xavfli ekanligini isbotlashga harakat qilishar edi. Ular o'z mafkuralari asosiy mezonlarini ijtimoiy adolat, milliy meros, turkchilik va milliy mustaqillik kabi qadriyatlar asosida shakllantirishdi. **Shu** bilan birga, ular ma'naviy-madaniy va ma'rifiy hayotni yangilashga, xalq turmush tarziga fan va texnika yutuqlarini olib kirishga, diniy jaholat, bid'at va mutaassiblikka, shuningdek, qoloqlikka barham berishga intilishdi. XX asrning dastlabki 10–15 yilida Turkistonda **yangi usuli jadid** yoki usuli savtiya maktablari ochildi, milliy matbuot va teatrlar tashkil etildi. Turli uyushmalar, harakatlar va xayriya jamiyatlari shakllandi. Jadidlarning eng ajoyib fazilati, ularni bu **hayotda** faol **harakatga** undagan narsa, avvalo, ularning fikran teran insonlar ekanligidir. **Chor-atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga** teran **ko'z**, aql-idrok bilan nazar tashlagan jadidlar **har** bir voqea, jarayonning mazmun-mohiyatini boshqalardan ko'ra **chuqurroq** anglab **yetdilar** va o'z davrlari muammolarini **hal** etishga intildilar [2].

#### **Adabiyotlar tahlili va metodlar**

Jadidlarning xalqning milliy uyg'onishi, mustaqillik uchun kurash g'oyalarining shakllanishida, shuningdek, uning madaniy-ma'rifiy qarashlarini boyitishda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon, Ubaydullaxo'ja **Asadullaxo'jayev** kabi taniqli kishilarning faoliyati katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston xalqlari orasida ilm-ma'rifatni rivojlantirish ularning milliy-davlat manfaatlarini himoya qilish uchun zarur, degan fikrga keladi. Agar bunday qarashlar debochasini XIX asrda Ahmad Donish kabi ma'rifatparvarlar boshlab bergan bo'lsa, ularning g'oya va qarashlarini Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Mirkomil Burxonov, Usmonxo'ja **Po'latxo'jayev**, Xolidxoji Mehri, Mulla Vafo, Abdurauf Fitrat kabi millatparvar ziyolilar rivojlantirdi. Jadidlarning bunday qarashlari hozirgi jamiyat uchun ham dolzarb sanaladi. Jadidlar to'y-hashamlarda ortiqcha dabdababozlik natijasida oilalar moddiy qiyinchiliklar girdobiga tushib borayotganligi, bunday odatlarni imkon darajada cheklash hukumatning siyosiy irodasi bilan bo'lishi zarurligini anglab **yetishdi**.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga chiqqan **jadidlarning** pedagogik qarashlarini o'rganar ekanmiz, Turkiston tarixida davlat va jamiyat boshqaruvi qay darajada shakllanganligiga, uning pedagogik qadriyatlarga sodiqligi muammolariga, unda ijtimoiy-ma'naviy ziddiyatlarning kelib chiqish sabablariga, xalqning ma'rifatsiz va o'quvsizligi oqibatida mustamlakachilik asoratiga tushib qolishi kabi savollariga javob topamiz. Bu davrga kelib o'zbek xalqi milliy ruhiyatining o'sishi sustlashgani, o'lkaning har bir jihatdan orqada qolib, kishilarimizda norozilik, kemptiklik, o'z millati va milliy tiliga nisbatan befarqlik his-tuyg'ulari xalqimizning ongiga, turmush tarziga, fikr yuritish va sa'y-harakatlarining miqyosi va sur'atlariga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ldi. Jamiyatda shariat va milliy axloqning zaiflashuvi, xonlarning nafs va hirsiga berilishi, munofiqligi, riyokorlik, xoinlik, tovlamachilik kabi axloqsiz illatlarning jamiyat ijtimoiy turmushiga kirib olishi davlatchilik asoslarini **yemirishga** olib keladi. Bunday sharoitda chet yurtlarning ko'z olaytirishi, o'zga **yerlarning** tabiiy resurslariga egalik qilish istagi tug'ilishi tarixda isbot talab qilmas aksiomadir.

Shunday niyati tug'ilgan Chor Rossiyasining mustabid siyosati Turkiston xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayot jabhalarini birday tobe qilib olishga qaratilgan edi. Turkiston milliy **davlatchilik** himoyasi uchun olib borilgan kurashda milliy-ozodlik harakatining o'ziga xos xususiyatlari hamda shart-sharoitlarining vujudga kelishini o'rganish jadidchilik va jadidlar harakati bilan bevosita bog'liq. Jadidlar o'z harakatlarini uchta frontda olib borishadi. Birinchisi siyosiy jabhada, ikkinchisi ma'naviy-falsafiy jabhada, uchinchisi shu maqsadlarni amalga **oshirishga** qaratilgan harakatlar bilan ifodalanadi. Birinchisi mustamlaka hokimiyati qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi milliy ong va tafakkurni o'zgartirishga qaratiladi. Uchinchisi, mahalliy hukmdorlar va ulamlarning qattiq qarshiligi sharoitida ma'rifatni amalga oshirish borasida ular yangi usuldagi maktablar quradi, kutubxonalar, qiroatxonalar ochadi, darsliklar, gazetalarda chop etadi, teatr tashkil etadi, ularning barchasi ziyolilar va ularga **xayrixoh** insonlar ishtirokida amalga oshirilgan [3].

Bular o'z davrida millat uchun ulkan o'zgarishlarga daxldor islohotlarga tenglashtirish mumkin. Bu jarayon ham katta kurashlar va bosimlar ostida amalga oshirilgan. Kurashning keng qamrovli mashaqqati ham ana shunday **obyektiv** va **subyektiv** omillarga borib tutashadi. Ma'rifatparvarlar shu tarzda nafaqat tashqi dushman bilan kurash olib borishadi, balki ichki milliy jaholat bilan ham kurash olib borishlariga to'g'ri keladi. Muammoning og'ir nuqtasi ham shu oxirgisining yuki bilan belgilanadi. Jadidlar o'z davrining yoshlar harakati edi, deydi professor D. Alimova. Olimaning ma'lumotlariga

ko'ra, Cho'lpon 1910-yilda 13 yoshda, Behbudiyning yoshi esa 30 dan oshiqroq bo'lgan ekan. O'sha harakatning boshqa ishtirokchilari faqat yoshlardan iborat ekani ma'lum bo'lyapti. Yoshlar intellektual jihatdan rivojlangan va Turkistonning jahon taraqqiyotidan orqada qolayotgani sabablarini tushunar edi. **Shu** o'rinda qayd etish joizki, ma'rifatparvarlikning chuqur ildizlari bo'lib, faqat jadidchilik ko'rinishida zuhur bo'lgani yo'q. Uning ma'rifatparvarlik ildizlari ham bor edi va jadidchilik ushbu harakatning akkumulyatori — quvvat yig'uvchisi bo'ldi. Albatta, u oldingi adabiyot, oldingi falsafa yutuqlariga asoslangan.

Jadidlar o'zini ushbu falsafaning tahlilchilari sifatida ham namoyon qildi. Bilamizki, mashhur ma'rifatparvar Ahmad Donish, shoirlar Muqimiy, Furqat, Hamza, Ubaydulla Zavqiy, Muhammad Bayoniy, Abay **Qo'nonboyev** va olim Cho'qon Valixonov islohotning hassos tarafdorlari bo'lgan, ular boshi berk ko'chadan chiqishni nafaqat ma'rifatda, qolaversa, turkiy xalqlar birligida ko'rgan. O'tmishdoshlaridan ancha oldinlab ketgan va ma'rifatparvarlikdan siyosatga o'tgan jadidlar shu zaminda unib chiqqan [4]. Jadidchilar siyosiy-ijtimoiy tizimni o'zgartirish vazifalarini, avvalo, ma'naviyat sohasini rivojlantirish orqali amalga oshirishga e'tibor qaratadilar. Buning uchun ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va o'quv qo'llanmalarni nashr etishni, G'arbning yangi madaniyat va texnologiya uslubiylarini o'rganish zaruriyatini, uni Turkistonda targ'ib etish orqali milliy-dunyoviy ta'limni yuzaga keltirishni, ma'naviy hayotni yangilash va boyitish, milliy o'zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar. Jumladan, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining "Xotiralarim" [5], M. Behbudiy [6], A. Fitrat [7], A. Avloniy [8] va boshqa milliy istiqlol qahramonlari asarlarida O'rta Osiyo xalqlari hayotida mustamlakachilik siyosatining asorati, ma'naviy-ma'rifiy va siyosiy qoloqlik, diniy **xurofot** hamda milliy istiqbolga erishish muammolari ko'tarilgan. Millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmasligi Behbudiy kelgan birinchi xulosalardan edi [9], — deydi B. Qosimov. Darhaqiqat, bunday g'oya milliy istiqlolchilik harakatining o'zagini tashkil etgan.

XX asr boshlarida butun Turkistonda yangi kuchga kira boshlagan jadidchilik harakati o'lkadagi barcha sohalar ishlarining kelajagini belgilab berdi. Jumladan, yangi adabiyot, publitsistika, siyosat kabilar ham shu sohalar tarkibida edi. Davr ushbu yo'nalishlarning xususiyatlarini aniqlab bergan namoyandalarini ham maydonga chiqardi. Ular orasida Abdurauf Fitrat alohida o'rin tutadi. Uning "Munozara" va "Bayonoti sayyohi Hindiy" kabi dastlabki nasriy asarlari nafaqat Buxoro, balki butun Turkiston jadidlarini yanada kuchlantirdi. Fitrat 1916-yildan boshlab yaratgan "Begijon", "Qon", "Abu Muslim", "Temur sag'anasi", "O'g'uzxon" kabi dramalarida tarixga murojaat etganiga qaramay, bolsheviklarning Turkistonda olib borgan g'ayrimilliy siyosatiga faol munosabat bildirib, zulm va zo'ravonlikka asoslangan yangi tuzumni keskin qoralagan. Mutaakkir bolsheviklar tuzumiga qarshi istiqbol uchun kurash g'oyasini "**Chin sevis**" (1920) va "Hind ixtilolchilari" (1923) asarlarida yorqin ifodalagan. U Turkistonda sovet hokimiyati yillarida sodir bo'layotgan fojiali voqealarni Angliyaning mustamlakasi bo'lgan Hindiston misolida, ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashayotgan hind **ixtilolchilari** (istiqlolchilari) siymosida, ma'lum ma'noda, o'z vatandoshlari timsolini yaratdi. Jadidlar o'z oldiga qo'yan maqsadlari yo'lida jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, mustaqillik uchun kurash olib bordi. Ularning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi.

Dunyoviy taraqqiyotdan ma'lumki, tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilganda odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, **intellektual** salohiyati yuqori, innovatsion tafakkurga ega, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarashga ega yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu **haqda** fikr yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** qayd etganidek: "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bir o'ylab ko'raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta'limga qaratilgan ulkan e'tibor tufayli emasmi?" [10], — deya alohida ta'kidlab o'tgan edi. Aynan mazkur omillar jadidlar tomonidan ilgari surilgan yoshlar tarbiyasini zamonaviy ilmiy texnologiyalarni isloh etish orqali amalga oshirishni **taqozo** etmoqda. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Ammo milliy istiqbol uchun kurash yo'llari va shu yo'ldagi maqsad mushtaraklikda bo'lgan emas. Mustaqillikka erishish kurashlari, afsuski, turlicha anglangan va yondashilgan. A. Avloniy o'z asarlarida millatning turmush tarzi, uning dunyoqarashi, tafakkuri hamda madaniyatining darajasini ifoda qilib, shu davrdagi milliy ruhiyatning nechog'li darajada nochor bo'lganligini ifodalab beradi. Jumladan, u shunday yozadi: "Ehtimol, bizning xalq ilmu ma'rifatni, tarbiya va ta'limni, hunar va sanoatni yaxshi ko'rar, deb o'ylaydurg'ondursan? Yo'q, bu fikringiz yanglish... Eshonlarimiz toat va ibodat, pandu nasihat, zikru tasbeh o'rniga to'ylarida to'n kiyub, ko'p oshab, ko'p uxlashni yaxshi ko'rurlar."

Ulamolarimiz darsu ta'lim o'rnig'a, **bir-birlari** ila o'rin talashib, mukarrir va mudarris bo'lishni, o'zlari bo'lolmay qolsalar, eshikma-eshik yurub saylovni buzushni yaxshi ko'rurlar. Imomlarimiz xaloyiqg'a va'z va nasihat o'rnig'a, to'y va janozalarda yurub, joma kiyishni yaxshi ko'rurlar. Boylarimiz orqa-o'nglariga qaramasdan, foyda va zararlarini oyirmasdan, **bir-birlarig'a** raqobat qilaman, deb bonka va kriditlarini ko'payturub, do'ffilari tor kelganda rus va yahudiylarning bukib-sinishini yaxshi ko'rurlar. Mo'ysafidlarimiz namoz va niyoz o'rniga, masjid eshigiga yig'ilib o'turib, har kimni g'iybat va shikoyat qilishni yaxshi ko'rurlar. Muallimlarimiz bir-birlaridan qizg'onishub, bolalarni arzon

o'qitaman deb, bir o'zlariga yuz, yuzdan ortiq bola yig'ub, o'zlari to'y va ma'rakalarda bolalarning umrini bekor o'tkarishni yaxshi ko'rarlar. Ammo men bo'lsam, hozirgi zamonda indamasdan turishni yaxshi ko'rurman.

Agar Abdulla Avloniyning aytganlarini tahlil qiladigan bo'lsak, unda millatning g'ayriaxloqiy ruhiy holati bilan bog'liq barcha illatlar mohiyati ochiladi. Jadidlar tomonidan Turkistonda uzoq yillar mustamlakachilikka qarshi olib borilgan ma'naviy-mafkuraviy, siyosiy kurashlar milliy davlatchiligimiz tarixida o'chmas iz qoldiradi. Asrlar davomida jaholat va tubanlik bilan ro'baro' yashagan xalqlarning qismat-taqdiri bobolarimiz ogoh etganlaridek, ayanchli **mustamlaka** o'p'qonida qolishligini yana bir bora tasdiqladi. Va bu tarixiy voqealiklar yangi avlod olishi lozim bo'lgan birinchi saboq. Ikkinchi saboq — jadid bobolarimiz qoldirgan siyosiy va ma'naviy tajribalar amaliyoti bugunda ham dolzarbdir. **Muhtaram** Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy". Zotan, erk, milliy g'urur, sha'n va qadr-qimmatni himoya etish milliy ruhiyatning ma'rifatidan hosil bo'ladi. Ma'rifatparvarlarning ta'lim va yoshlar tarbiyasiga doir qarashlari, ilmiy asarlari hamisha diqqat markazimizda bo'lib kelgan. Xususan, Turkistonda jadidlar harakati, ma'rifiy va siyosiy qarashlari ostida xalq umidlari aks etgan edi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot ishimizda tarixiylik, mantiqiylik, analiz va **sintez**, umumlashtirish, **taqqoslash** usullaridan keng foydalanildi.

#### **Tahlil va natijalar**

Xo'sh, ilg'or ziyolilar o'z maqsadlari sari qanday yo'llarni bosib o'tdi? Bu borada tarixshunos olim, tarix fanlari nomzodi, dotsent Nodira Rasulova tomonidan **bildirilgan** fikrlar e'tirofga molikdir. Uning fikriga ko'ra, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidlar harakati Turkistonda ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy qarashlarning shakllanishida alohida ahamiyat kasb etdi. XX asr boshlarida O'zbekiston xalqining mustaqillikka, milliy davlatchilikni tiklashga, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin egallashga intilishi nihoyatda keskin tus oldi [11].

Mazkur harakat o'sha davrda o'z xalqini chet el bosqinchilariga qarshi kurashga safarbar eta oladigan, ozodlik harakatlariga rahnamolik qiluvchi, xalqning istak va manfaatlariga, his-tuyg'u va e'tiqodiga mos keluvchi davlat va huquq tuzilmalarini yaratishni o'zlarining asosiy maqsadi deya his etgan siyosiy partiyalar vujudga kela boshladi. **Shu** tariqa, jadidchilikda ma'rifatparvarlik harakatidan asta-sekin siyosiy harakatlar **yetakchisiga** aylangan ziyolilarning yangi bir avlodi shakllandi. **1914-yilda** boshlangan Birinchi jahon urushi ma'rifatparvarlarning fikrlarini ancha siyosiy lashtirdi. Bu vaqtga kelib ular parlamentar monarxiya tuzumi haqida yozdilar, fuqarolarning davlat organlarini shakllantirishda, qonunchilik jarayonida, davlatni idora qilishda ishtirok etish yo'llari va usullarini ishlab chiqishga urindilar. Xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, **Mahmudxo'ja** Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon va Abdurauf Fitrat kabi jadidlarimizning g'oyalari xalqni o'zligini anglashga tayyorlash va shu yo'l bilan milliy ozodlikka erishishini ta'minlashdan iborat bo'ldi. Ularning ijodida, siyosiy faoliyatida milliy mafkura ildiz ota boshladi. Jadidchilik ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida **1915-yildan** boshlab ma'rifatchilikdan siyosatga qarab yo'l tutdi [12].

**Shu** o'rinda o'zbek xalqining ilg'or ziyolilari Turkistondagi idora usuli, demokratiya, boshqaruv shakllari, davlatchilik nazariyasi va amaliyoti bilan faol shug'ullana boshladi. Ayniqsa, 1917-yilgi Oktyabr to'ntarishi o'lka xalqlarida mustamlakachilik **girdobidan** xalos bo'lish umidini uyg'otdi. Natijada mahalliy aholi o'lkada mustaqil, demokratik Turkiston respublikasini tuzish maqsadida siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishni boshladi.

Jadidchilik milliy ma'rifatchilik harakatining shakllanishiga xizmat qildi. Jadid ma'rifatparvarlari o'lkada xalqni ilm-ma'rifat orqali taraqqiy ettirish, milliy ong va ijtimoiy tafakkurni yuksaltirish, zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishdi. Jadidlar tomonidan yaratilgan ijodiy meros nafaqat adabiy yoki publitsistik ahamiyatga, balki kuchli pedagogik va tarbiyaviy mazmunga ham ega hisoblanadi. Shu o'rinda jadidlar ijodiy merosini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish milliy ta'lim tarixi, ma'naviy tarbiya va zamonaviy pedagogik g'oyalarning shakllanish jarayonlarini o'rganishga zamin yaratdi.

Jadid **ma'rifatparvarlari** o'z **harakatlarini**, avvalo, ma'rifat orqali jamiyatni isloh qilish g'oyasiga tayangan holda boshladilar. Millat ma'rifatining ustunlari bo'lmish Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, **Cho'lpon** kabi ziyolilar ta'lim va tarbiyani millat taraqqiyotining asosiy **mash'alasi** sifatida e'tirof etishgan. **Jadidlarning** asarlarida quyidagi pedagogik g'oyalar ustuvor ahamiyat kasb etdi. Xususan, ilm va ma'rifatni jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida talqin qilish, milliy va dunyoviy ta'lim uyg'unligini ta'minlash, axloqiy tarbiyani ta'lim jarayonining muhim qismi sifatida qarash, yoshlarda vatanparvarlik va milliy ongni shakllantirish, shaxs kamolotida mustaqil fikrlashni rivojlantirish kabi ustuvor **masalalarga** alohida e'tibor qaratishgan.

Jadidlar ta'limni faqat savod chiqarish vositasi emas, balki jamiyatni yangilash va milliy uyg'onish mexanizmi sifatida anglashgan. Abdulla Avloniyning pedagogik merosida tarbiya masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Uning pedagogik qarashlarida axloqiy tarbiya, mehnatsevarlik, milliy g'urur, ma'naviy poklik, ilmga muhabbat kabi fazilatlarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Abdulla **Avloniyning** fikriga ko'ra, ta'lim va tarbiya jarayoni milliy qadriyatlar bilan uyg'un bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlab o'tiladi. Albatta, bu g'oya bugungi kunda milliy pedagogikamizda ham o'z ahamiyatini saqlab kelayotganligi e'tiborga molikdir. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" nomli durdona asari bugungi kunda farzandlar tarbiyasida dasturulamal vazifasini o'tab kelmoqda. **Shu** o'rinda adib Abdulla Avloniyning "tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli

so'zlari ayni haqiqatdir. Bugun ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning bu so'zlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar **muhim** va dolzarb bo'lgan bo'lsa, **hozirgi** vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham **ko'ra** muhim va dolzarb ahamiyat kasb etishini hayotning **o'zi** tasdiqlamoqda. A. Avloniy "har bir millat o'z ona tili va adabiyotining saqlamagini" "hifzi lison" deb ataydi. Chunki "har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadig'on oynai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak, millatni ruhini yo'qotmakdur" [13]. Albatta, adibning ushbu fikrlari hozir kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Abdulla **Avloniyning** ijodini o'rganish jarayonida pedagogik tahlil shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiya bir-biridan aslo ajralmas jarayondir. Avloniyning fikricha, bilim axloq bilan **o'zaro** uyg'unlashsa, ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bu esa jamiyatda ta'limni tarbiya bilan uzviy **holda** olib borishni talab etadi. Zero, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi, bu sharqona hayot falsafasi ekanligini bugungi davr va zamon **taqozo** etmoqda.

Shu o'rinda, Mahmudxo'ja Behbudiy jadid maktablarini tashkil etish va yangi usul ta'limini rivojlantirishda **yetakchi** ma'rifatparvarlardan biri hisoblanadi. Behbudiy ta'lim tizimida dunyoviy fanlarni o'qitish, xorijiy tillarni o'rganish, geografiya, tarix va tabiiy fanlarga e'tibor qaratish, zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish zarurligini alohida ta'kidlab o'tgan. Milliylik masalasi jadid ma'rifatparvarlari kabi Mahmudxo'ja Behbudiyning faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bugun biz, oradan 100 yil o'tganidan keyin, Turkistonda Mahmudxo'ja Behbudiy rahbarligida yuzaga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati tarixini o'rganganimizda, ularning qanday murakkab sharoitda yangi maktablarni ochgani, milliy matbuotga asos solgani, yangi badiiy adabiyot va teatr san'atiga tamal toshini qo'ygani o'ylasak, ularning bu faoliyatlarini fidoyilik va jasorat deb baholash lozim bo'ladi [14]. Albatta, Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining ma'rifiy, publitsistik va pedagogik faoliyati orqali milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta jonbozlik ko'rsatdi. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodiy merosida ta'lim, tarbiya, milliy ong, milliy o'zlikni anglash, ma'naviyat va jamiyat taraqqiyoti masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari zamirida milliy ta'lim tizimini yangilash, dunyoviy ilmlarni rivojlantirish, milliy kadrlar tayyorlash va yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash g'oyalari o'zaro uzviy ravishda bog'langan. **Behbudiyning** pedagogik dunyoqarashining shakllanishida **Sharq** ma'naviy-ma'rifiy merosi, islomiy ta'lim va axloq an'analari hamda rivojlangan Yevropa ta'lim tizimining ta'siri katta hissa **qo'shadi**. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistondagi eski maktab va madrasalar faoliyatini tanqidiy baholab, ularni bugungi zamon talablari asosida isloh qilish zarurligini ta'kidlab o'tadi. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim tizimining asosiy vazifasi sifatida millatni jaholatdan qutqarish va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdan iborat ekanligini qayd etadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning fikricha, "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur". Albatta, mazkur fikr Behbudiy pedagogik konsepsiyasining asosiy mazmunini ifodalaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy esa quyi va yuqori maktabning isloh etilishi millatning isloh etilishiga olib keladi, **deb hisoblaydi**. Uning ta'kidlashicha, millatning isloh etilishi bu milliy g'oya bo'lib, uni barcha targ'ib qilishi kerak. Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston o'lkasida yangi usul maktablarini tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tashabbuskorlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. U ta'lim jarayonida sinf-dars tizimini joriy etish, tabiiy va aniq fanlarni o'qitish, geografiya, tarix va adabiyotga e'tibor qaratish, xorijiy tillarni o'rganish, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish kabi masalalariga alohida ahamiyat qaratgan. Shu o'rinda qayd etish joizki, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat ul-atfol", "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy", "Madxali jug'rofiyai umroniy" kabi asarlari ta'lim mazmunini yangilashga qaratilgan muhim pedagogik manbalar hisoblanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy matbuot sahifalarida e'lon qilingan o'nlab maqolalarida savdo va ishlab chiqarish vakillarini boshlangan xayriya ishlarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashlariga da'vat qila boshladi. U shunday maqolalaridan birida "turli davrlarda taraqqiyot va islohotlarni sarmoya va uning vakillari dastaklab kelgan. Millatga dalda berish, maktablar islohi, yoshlarimizni Yevropa oliy o'quv yurtlariga kirishlariga tayyorlash, umummilliy ishlarni amalga oshirish uchun bizga "Xayriya jamiyatlari", kutubxonalar, jamg'armalar, turli to'garaklar, gazetalar, jurnallar, nashriyotlar va hokazolar kerak. Millatning taraqqiyoti mana shu yo'l bilan amalga oshiriladi va bu ishlar uchun mablag' zarur. Mablag' esa bizning boylarimiz qo'lida" [16], — deb yozgan edi. O'rganilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Mahmudxo'ja Behbudiy o'z ijodiy faoliyatida ta'lim jarayonini amaliy va hayotiy bilimlar bilan boyitishga intilgan. Uning qarashlarida o'quvchi shaxsini mustaqil fikrlash orqali ijtimoiy faol va ma'naviy **yetuk** inson sifatida tarbiyalash g'oyasi dolzarb vazifa hisoblangan. **Shu** bilan bir qatorda, Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida axloqiy tarbiya masalasiga muhim pedagogik kategoriya sifatida e'tibor qaratilgan. Behbudiy yosh avlodni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilmga muhabbat, milliy g'urur, ma'naviy poklik ruhida tarbiyalashni millat kelajagining asosiy sharti deya hisoblagan. Behbudiyning publitsistik maqolalari va dramatik asarlarida ham jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ma'rifat orqali hal etish g'oyasi ilgari suriladi. Ayniqsa, "Padarkush" dramasida ilmsizlik va tarbiyasizlikning salbiy oqibatlarini badiiy-pedagogik jihatdan chiroyli ravishda ochib bergan. Munavvarqori Abdurashidxonov, **Mahmudxo'ja** Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon va Abdurauf Fitrat kabi jadidlarimizning g'oyalari xalqni o'zligini anglashga tayyorlash va shu yo'l bilan milliy ozodlikka erishishini ta'minlashdan iborat bo'ldi [17].

#### **Xulosa**

Jadidlar ijodini pedagogik jihatdan tahlil qilish ularning nafaqat ma'rifatparvar, balki milliy pedagogika nazariyasining asoschilaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Ularning g'oyalari bugungi ta'lim tizimini takomillashtirish, milliy qadriyatlar asosida barkamol avlodni tarbiyalash va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ajdodlar ma'rifat yo'li haqida o'ylar ekanmiz, davlatimiz rahbari Shavkat **Mirziyoyevning** "Biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy

xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab **yetadi**", degan so'zlari vatanparvar ziyolilarimizga ehtiromni yanada oshiradi. Xulosa qilib aytganda, jadid ma'rifatparvarlarining ijodiy merosi milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ularning ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari milliy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy yuksalish va jamiyat **yangilanishining** muhim nazariy asosi sifatida namoyon bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharipov R. *Turkiston jadidchilik harakati tarixidan*. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – B. 15.
2. Nomozova K. *Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar*. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2010. – B. 3.
3. Munavvarqori Abdurashidxonov. *Xotiralarim*. – Toshkent: Sharq, 2001.
4. Sharipov R. *Turkiston jadidchilik harakati tarixidan*. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – B. 15.
5. Ahrorova Z. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2023. – Vol. 5 (NUU Conference 2). – B. 201–206.
6. Behbudiy M. *Tanlangan asarlar* / To'plovchi, so'zboshi va izohlar muallifi B. Qosimov. – 2-nashr, tuzatilgan va to'ldirilgan. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
7. Fitrat A. *Tanlangan asarlar*. I jild: Nasriy asarlar, dramalar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
8. Avloniy A. *Tanlangan asarlar*. 1–2 jildlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
9. Qosimov B. *Milliy uyg'onish*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 8.
10. Hamroqulova Sh. E., Tulishov G'. R. Abdurauf Fitrat asarlarida ijtimoiy tarbiya masalalarining yoritilishi // *Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rni*. – 2022. – Vol. 2, № 24. – B. 123–126.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – URL: <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>
12. Rustamov A. *Millat vatanparvarlari: jadidlarning ma'rifatparvarlikdan siyosatga qadar yo'li*. – URL: [https://uza.uz/ru/posts/millat-vatanparvarlari-zhadidlarning-marifatparvarlikdan-siyosatga-qadar-yoli\\_547289\\_](https://uza.uz/ru/posts/millat-vatanparvarlari-zhadidlarning-marifatparvarlikdan-siyosatga-qadar-yoli_547289_)